



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

IJODKOR KONSEPSIYASI: NODIR NORMATOV BADIY TALQINI

Niyazova Zilola Eshtemirovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek adabiyoti (10.00.02) ixtisosligi 2-kurs tayanch doktoranti

zilolaniyazova83@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nodir Normatov hikoyalarida, xususan, “Guldurak dashtlarida” asari misolida ijodkor konsepsiyasining badiiy talqini tahlil qilinadi. Adabiyotshunoslikda ijodkor konsepsiyasi yozuvchining inson va hayot haqidagi falsafiy-estetik qarashlari, badiiy idrok uslubi sifatida qaraladi. Muallif Normatov ijodida bu konsepsiya insoniy vijdon, ota-ona hurmati, ruhiy uyg'onish va ma'naviy ildizga qaytish g'oyasi orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ijodkor konsepsiyasi, badiiy tafakkur, ruhiy uyg'onish, psixologik tahlil, milliy ruh, falsafiy obraz, ma'naviy ildiz.

Ijodkor konsepsiyasi va Nodir Normatov hikoyalarida uning badiiy talqini.

Kirish. Adabiyotshunoslikda *ijodkor konsepsiyasi* deganda yozuvchining badiiy olamni idrok etish uslubi, inson va hayot haqidagi falsafiy-estetik qarashlari, dunyoni badiiy ko'rish tamoyillari tushuniladi. D. Qur'onov ta'kidlaganidek, “ijodkor konsepsiyasi — bu san'atkorning hayot haqidagi falsafiy qarashi, insonni qanday ko'rishi va qanday tasvirlash usulida namoyon bo'ladi” [D.Qur'onov, 72]. Nodir Normatov ijodida bu konsepsiya insoniy vijdon, ota-ona hurmati, ruhiy uyg'onish va hayotning ma'naviy mazmunini izlash orqali ochiladi. Uning “Guldurak dashtlarida” hikoyasi ana shu konsepsiyaning yorqin namunasi bo'lib, insonning ichki kechinmalari, vijdon azobi va ma'naviy uyg'onish jarayoni badiiy-falsafiy asosda talqin etilgan. **Asarda ijodkor konsepsiyasining badiiy talqini.** “Guldurak dashtlarida” hikoyasida muallif **Jonmurod** obrazi orqali insonning vijdon oldidagi sinovini, ota va o'g'il o'rtasidagi ruhiy rishtani tahlil qiladi. Asarda jamiyatdagi **axloqiy inqiroz, ruhiy cho'kish va ma'naviy uyg'onish** muammolari chuqur badiiy ifoda topgan. Jonmurod — tashqi dunyoda mehnatkash, lekin ichki dunyosida bo'sh, ma'naviy tayanchini yo'qotgan inson timsoli. Onasi Barchin momo orqali yozuvchi qadriyatlar, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik, “o'tmish bilan ruhiy aloqa” g'oyasini ilgari suradi. Asar boshida **Barchin momo va Jonmurod orasidagi suhbat orqali ijodkor konsepsiyasini ochib berish mumkin.** “Barchin momo urchuq yigirishdan to'xtadi, supa chetiga kelib o'tirgan o'g'liga ko'z ostidan qarab qo'ydi. Titilib, chuykalangan junni tizzasidan olib, ro'moliga sola boshladi.” Hikoyada ro'mol, chuykalangan jun, urchuq yigirish — bular oddiy dehqon-kishining oddiy kundalik amallari. Lekin muallif bu amallar orqali kampirning ichki bezovtaligi, ruhiy kechinmasini namoyon qiladi. Chunki qo'l titrashi, ko'z ostidan qo'yilgan nigoh — bu tashqi tinchlik ichida ichki tashvishning ifodasidir. Normatov badiiy tafakkurida oddiylik (“kovashga arzimagan” amallar) ichida inson ruhining chuqur tirnashlari yotadi. Oddiy tomonlar orqali hissiyot va ruhiy ortiqchilikni ko'rsatish — bu muallifning san'at yo'nalishining xususiyati. “... kampirning qo'llari bilinar-bilinmas qaltirab ketdi. Jonmurodning bunga ko'zi tushdi, endi aniq sezdi — hozir onasi qattiq bir gap aytadi.” Titirab ketgan qo'llar — psixologik stres, ichki kutish. Jonmurodning sezishi — voqeaning hissiyot jihatdan oshishi. Bu sahna o'quvchida kutish holatini uyg'otadi: nimalar bo'lishini bilmaslik, ammo narsaning og'ir ekanini anglash. Yozuvchi ruhiy kechinmalarni tasvirlashda psixologik nazokatga e'tibor qaratadi. Ob'ektiv voqea emas, sub'ektiv hislar, ichki sezgi muhim. Tinglovchi, o'quvchi voqeaning tashqi ko'rinishi orqali ichki dunyoni his qilishga majbur bo'ladi. Normatovning yozuvchilik konsepsiyasi jamiyatdagi ma'naviy tanazzulga qarshi turuvchi **ruhiy uyg'onish konsepsiyasidir.** U insonni o'z o'tmishi, ildizi, ota-onasi bilan bog'laydi. Adabiyotshunos M. Muhiddinov “Komil inson – adabiyot ideali” asarida shunday deydi: “Ijodkorning badiiy qarashi — bu insonni faqat tashqi harakati bilan emas,

balki vijdoni, ma'naviy dunyosi orqali anglash san'atidir" [Muhiddinov M, 64]. Muallif ruhiy azobni obrazlar psixologiyasi orqali yoritadi: "Jonmurod rayhonga qo'l cho'zdi. — Tegma! — dedi onasi negadir jahl bilan..." Bu sahna — onaning ko'ngli va ruhiy sezgisi orqali o'g'il qalbidagi g'uborni ilg'ashi, vijdon bilan ruh o'rtasidagi ziddiyatni anglashidir. Hikoyada **onaning ogohlantirishi va o'g'liga nisbatan qo'yilgan ayblovlarda ham insonning ildizi, qadriyati nechog'li muhim ekanligi yoritiladi.** "Sen qanday beg'am o'g'il bo'lding, bilmayman..." "... Otang haqida Asqar tog'chi nimalar deb yuribdi, eshitdingmi?" Onaning nigohi — oddiygina xo'rsinishdan, og'riqdan keladi. "Beg'am o'g'il" — psixologik ayblov, o'zining o'tmishi, kimligini unutayotgan inson. Asqar tog'chi obrazini insoniyligini yo'qotayotganlarni ogohlantiradigan, o'zligi anglatuvchi so'zlarni tarqatuvchi nur deb aytishimiz mumkin. Normatov xalq muhiti, qishloq ahli, mish-mish, ayblov va so'z-gaplarning ruhiy og'irligini ko'rsatadi. Axloqiy haqiqat va yovuz so'zlar inson ruhini qanday ezishi mumkinligi muassal ko'rinishda beriladi. Hikoya sirli nuqtalarni tahlil qilishga asoslangan va asarni o'qishligini, badiiyligini ta'minlab bergan. Hikoyadagi **o'tmish, go'r va qabriston masalasi:** "Uning otasi go'ridan yo'qolgan emish. Yer chiqarib tashlaganmi, yutib yuborganmi..." "Ana o'sha qabrlarni qayta qazish chog'ida Jonmurodning otasi o'z qabridan topilmagan emish." Qabrni qazish, otaning qabridan topilmasligi, "go'ri yo'qolgan" degan mish-mishlar — bu tashqi voqealar, lekin ularning asosiy maqsadi — Jonmurod va onaning ichki dunyosidagi noaniqlik, azob, haqiqatni izlashdir. Normatovda o'tmish va ruhiy xotira markaziy mavzulardir. Qabr — faqat geografik joy emas, boshidan kechirilgan kechinmalar, yoshiy toshqinlar, ruhiy meros timsoli. Haqiqatni izlash — o'g'il uchun ham, nasl uchun ham vazifa. Shuningdek, inson-iymon, ruhiy barqarorlik, e'tibor — bu konsepsiyaning ajralmas unsurlaridir. Nodir Normatov hikoyalarida inson kechinmalari — faqat hissiyot emas, balki ma'naviy sinovlar maydonidir. Yozuvchi o'z qahramonlarini ruhiy sinovlar orqali o'stiradi, ularning ichki dunyosidagi titrash, sukut va iztirob orqali hayot haqidagi chuqur haqiqatlarni ochadi. "Jonmurod" obrazi ana shunday ruhiy kechinmalarning markazida turadi — u orqali yozuvchi insonning o'z vijdoni bilan yuzlashuvi, ona timsolidagi muhabbat va otasizlik iztirobini badiiy shaklda tasvirlaydi. Ichki silkinish — vijdon uyg'onishining boshlanishi hisoblanadi. "Jonmurod bu gaplarni aytarkan, onasining o'ziga sin solib qarab turganini sezdi... Ichdan zil ketib, gangib qoldi..." Bu sahna Jonmurod ruhiyatidagi ilk uyg'onish lahzasidir. Onaning nigohi — oddiy qarash emas, balki vijdonning ko'zqusidir. O'g'il yuragiga qaralgandek bo'ladi. Yozuvchi "ichdan zil ketdi" deb yozarkan, bu so'z orqali insonning o'zini anglash paytidagi ruhiy zarbani ifodalaydi. Shundan boshlab Jonmurod tashqi hayotdan — "qo'ylar, kurkalar, tovug'lar mo'l" degan moddiy manzaralardan — ichki haqiqat tomon yuradi. Bu yerda muallif jamiyatdagi moddiy tengsizlikni tan oladi, lekin uni markazga qo'ymaydi. Uning diqqat markazida insonning ma'naviy tengsizligi — ruhiy bo'shliq, mehr yetishmasligi. Onaning sokin nigohi orqali yozuvchi insonni o'z vijdoniga qaytishga undaydi. Onaning og'rigi — inson ruhining og'rigini ko'rsatib beradi. "Barchin momo kundan-kun cho'pday ozib, nihoyat betoblanib qoldi... to'satdan vafot etdi." — O'g'il bo'lib, uning ko'nglini topa olmadim, armonda ketdi, voh onam..." Bu lahzalar insoniylikning eng og'riqli nuqtasi. Onaning asta so'nib borishi jismoniy o'lim emas, balki ruhiy bo'shashuvdir. Uning har bir harakati, jimligi, ozib borishi — ichki iztirobning tashqi ifodasi. Jonmurodning "armonda ketdi" degan faryodi esa, kech anglangan vijdonning sadosidir. Bu faryod — insonning o'zini kech anglagani, onaning mehrini vaqt o'tib tushunganidir. Muallif bu orqali inson hayotidagi eng og'ir yo'qotish — bu "kech anglash" ekanini ko'rsatadi. Onaning vafoti bilan voqealar tugamaydi; ruhiy xotira, ma'naviy izlar davom etadi. Normatov uchun insonning eng yuksak azobi — sevgidan, onalik mehridan, ruhiy ildizdan uzilishdir. Hikoyada Moddiy dunyo va ruhiy ko'rlik ziddiyati ijodkor konsepsiyasini yanada teranroq ko'rsatib berishga xizmat qilgan. Hikoyada yozuvchi moddiy narsalar orqali ham asar mohiyatini teranroq ochib berishga e'tibor qaratgan. Jonmurodning tashqi hayotdagi "barqarorlik" davrini yashab o'tadi. U endi mehnat qiladi, yashaydi, jamiyatda "obro'" orttiradi. Ammo muallif bu barqarorlik

ortida ruhiy bo'shliqni yashiradi. "Neksiya" va "tilla" — tashqi muvaffaqiyat belgisi, ammo ichki sokinlik, ruhiy tinchlik yo'q. Normatov konsepsiyasida insonning haqiqiy boyligi moddiy emas, ruhiy uyg'onishdadir. Jonmurod tashqi mehnatda qattiq, ammo ichida sovuq. Yozuvchi shunday qilib, zamonaviy insonning eng katta fojiasini — "ruhiy ko'rlik"ni ko'rsatadi. Hikoyadagi Vizual xayollar tasviri – ruhiy ehtiyojning timsoli sifatida ko'rsatib beriladi. "Denov bozorida otasini ko'rib qoldi. Ko'zlariga ishonmadi.... 'Ota!' deb orqasidan yugurmoqchi bo'ldi..." Bu sahna real hayot bilan orzu o'rtasidagi chegarani yo'qotadi. Bozor — hayotning ramzi, harakat, olomon, lekin Jonmurod uchun bu joy birdan ruhiy sahnaga aylanadi. U otasini "ko'radi", ammo bu ko'rish — ruhiy ehtiyojning hosilasi. Ota bilan muloqot — bu ruhiy tozalanish, ichki kechirim ramzidir. "Qo'lida qo'y tizgini... beton ariqqa yiqildi." Yozuvchining mahorati - ruhiy qulashni badiiy detallar orqali ifodalashidadir. Ariq — hayot oqimi, beton esa to'siq. Jonmurodning yiqilishi — uning ruhining hayot oqimidan uzilishi, ammo shu yiqilish orqali u ichki haqiqatga yaqinlashadi. Hikoyani yakunlagan Baxshiyona to'rtlik – xalq ruhi va xotiraning so'nggi sadosi, butun hikoyaning ruhiy yakunidir. Unda xalq og'zaki ijodi, milliy ohang, ayriliqning abadiy iztirobi mujassam. Yozuvchi baxshiyona uslub orqali milliy ruhni Jonmurodning shaxsiy kechinmalariga bog'laydi. Misralar o'tmish bilan hozirgi, ota va o'g'il, ruh va tana o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Normatov xalqona ohangni falsafiy qatlamga aylantirib, inson xotirasining abadiyligini ko'rsatadi. Hikoyada ruhiy uyg'onish yo'lida Jonmurodning hayotini inson ruhining sayohati sifatida anglashga undaydi.. U moddiy dunyodan ruhiy haqiqat sari yuradi. Yozuvchi uni ayblamaydi, balki inson sifatida anglashga undaydi. Xulosa qilib aytganda, Nodir Normatov ijodkor sifatida moddiy haqiqatni inkor etmaydi, lekin uning ustiga ma'naviy haqiqat piramidasini quradi. U uchun inson hayotining ma'nosi — o'zini, o'z ildizini, onaning mehrini va otaning ruhini anglashda. Ushbu hikoyada Normatovning ijodkor konsepsiyasi quyidagicha shakllanadi: Insonning eng yuksak mezon Vijdon va muhabbat ekanligi, ruhiy iztirobi o'sish uchun zarur bir sinov, insonni inson qiluvchi ildiz xotira va milliy ruhga tayanishini, Moddiy muvaffaqiyat - faqat fon, haqiqiy yutuq esa — ma'naviy uyg'onish ekanligini yuksak badiiy assotsiativlik jihatidan tasvirlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilmurod Quronov. *Adabiyotshunoslikka kirish*. — www.ziyouz.com kutubxonasi. – 72 b
2. Muhiddinov M. *Komil inson – adabiyot ideali*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2005. — 64 b
3. <https://n.ziyouz.com/nodir-normatov-guldurak-dashtlarida-hikoya>